



O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA "MUHABBAT" KONSEPTINI IFODALOVCHI "OLOV" LEKSEMASI TADQIDI

Sa'dullayeva Madina Qosimovna

BuxDU Lingvistika (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi, 2-bosqich magistranti

E-mail: m.q.sadullayeva@buxdu.uz

Tel: (99) 350-80-32

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7519241>

Annotatsiya. Maqolada "muhabbat" konseptini "olov" leksemasi bilan qiyosiy tahlil qilish muhabbatning lingvomadaniy belgilarini ochish bilan bir qatorda muhabbatning jo'shqinlik, shiddatkorlik, qaytmaslik xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi.

Tayanch so'zlar: lingvokultralogiya, madaniy qadriyat, madaniy belgi.

Bugungi kunda matn tahlilida tadqiqotchilar grammatika, semantika, kognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya kabi qator yo'nalishlar qo'lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko'rmoqdalar. Bundan maqsad – nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilining lisoniy faoliyatda qanday o'rin tutishini aniqlash bo'lsa, ikkinchi tomondan, matnning semantik, lingvokulturologik xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganishdir. Tilshunoslikda barchaning e'tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan lingvokultralogiya masalalari ko'pchilik tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilayotgan bo'lsa-da, biroq to'laqonli o'z yechimini topgan emas. Hech bir narsa o'z-o'zidan va shunchaki paydo bo'lmaydi. O'zbek xalq maqollarini lingvokulturologik nuqtayi nazaridan o'rganish bizga milliy ong va taffakkurimizni boyitish bilan bir qatorda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantiradi. Xalq og'zaki ijodining eng qadimgi na'munasi bo'lgan – maqollar urf-odat va an'alarimizning bir bo'lagi hisoblanadi. Unda shaxs ma'naviyati rivojlanib komillikka erishadi. Maqollar insonni mana shu yo'lga yetaklovchi "murabbiy" vazifasini bajaradi. "Muhabbat" ham inson hayotidagi eng murakkab davr sifatida belgilanadi. Insondagi biologik va fiziologik o'zgarishlar mana shu davrda faol harakat qiladi.

"Muhabbat"ning xarakter-xususiyatini ochib berishda obrazli tasvir vositalaridan keng foydalaniladi. Bunda "olov" leksemasining ifodalanishi e'tiborimizni tortadi, chunki olov va muhabbat o'rtasida bir qarashda bog'liqlik yo'q. Ammo uning semantik xususiyati qiyosiy tahlilida ular o'rtasidagi o'zaro yaqinlik hatto o'tmish belgilari borligini anglaymiz. "Muhabbat" leksemasining "olov" va "o'choq" leksemalari bilan bo'g'lanishida ramziy ifoda xalqimizning urf-odat va an'analari mavjud bo'lib, ularning tarixi uzoq o'tmish – paleolit davri bilan bog'lanadi.



Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti turli davrlarda, turli makon va zamonda yuzaga kelgan katta siljishlar, g'oyaviy-ma'rifiy sakrashlar, kuchli ruhiy ta'sirlar orqali takomillashish jarayonini boshdan kechirgan. Tarix zarvararlariga nazar tashlar ekanmiz olov qadimdan muqaddas timsol sifatida sharaflangan. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da muqaddas to'rt unsurdan biri olov ekanligiga guvoh bo'lamiz. Zardushtiylik dinida olov gunohlardan tozalovchi sehrli kuch deb qaraladi. Axuramazda Zardusht bilan bog'langan joy hisoblanadi. Manbada yorug'lik manbayi quyosh deb ko'rsatiladi. "Quyosh nuri insonga hayot bag'ishlaydi. Olov quyoshning bir parchasi bo'lganligi uchun ham inson olovni muqaddas hisoblaydi,"[1., 46 b.] Olov, suv, tuproqni muqaddas deb bilgan xalqimiz: olov va suvga axlat, umuman, iflos narsalarni tashlamaslik, tepmaslik, mabodo bu narsalani qilsa yomon bo'lishi haqidagi o'gitlar berilgan. Bundan ko'rinadiki, muhabbat ham xalqimiz uchun muqaddas tuyg'u. Uni oyoqosti qilish esa qoralangan. Olov timsoli oshiq'larga ma'suliyat hissini oshirish vazifasini bajargan:

Muhabbat – o't-olov.

Ish – muqaddas o't, Havas – loyqa suv.

Adiba Yusupova "O'choq realiya birligi ishtirokidagi barqaror birliklar persepsiyasi" nomli maqolasida "o'choq" leksemasining kelib chiqish tarixiga to'xtalib o'tadi. Jumladan, "O'choq – olov yoqish, uni saqlash va ovqat pishirish uchun mo'ljallangan, ustiga qozon o'rnatiladigan uch tomoni yopiq qurilma. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, o'choq ilk paleolit davridan ma'lum. O'choq turli urf-odatlar, marosimlarni o'tkazishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Barcha xalqlarda muqaddas joy hisoblangan.

Ishqsiz ko'ngil – o'tsiz o'choq.

O'choqdagi o't boshqa, Yurakdagi o't boshqa.

Muhabbatsiz umr – o't olmas ko'mir.

Bundan ko'rinadiki, "o'choq", "olov" "o't" kabi birliklar oila mustahkamligi va farovonligi ramzi sifatida ulug'langan[6.,147]. Uyda "o'choq"ning so'nishi oiladagi baraka va halovatning yoqolishiga tenglashtirilgan.

Xalqimiz orasida "do'zax olovi" atamasi ham keng qo'llaniladi. Bundan ko'rinadiki, olov islom dinida "do'zax"ni eslatuvchi ramziy ifoda hisoblanadi. "Islomobod" jome masjidi imom xatibi Abdulhamid Jumano do'zax va uning azoblari haqida fikr yurutib, jumladan quyidagilarni bayon qiladi: "Hammamiz bilamiz-ki, do'zaxda olov bor. U biz bilgan olovdan ming marta qaynoq va shiddatliroq. Bandaning ham olovda yonadigan a'zosi, asosan, terisi hisoblanadi. Alloh taolo Qur'oni karimda aytadiki, "...har safar ularning terisi kuyib ketganida,



biz yana qaytadan ularning terisini qoplab beramiz”. Nega, chunki ular azobni yaxshiroq his qilishlari uchun. Zamonaviy tibbiyot ham buni isbotladi. Ya’ni insonning terisi his qiluvchi bo’lib, uning eti hech narsani sezmas ekan. Jannat qanday mukammal rohat maskani bo’ladigan bo’lsa, Alloh do’zaxni ham ana shunday mukammal azob makoniga aylantirdi. Do’zaxda olov bor, qaynoq suvlar quyilishi, yiring ichirilish bor, Alloh u yerning hidini o’ta badbo’y qildi, ko’rinishini xunuk manzaraga keltirdi va do’zaxda banda bu dunyoda qilgan ishiga yarasha Alloh taolo unga hozirlab qo’ydi. Biz bugun yengil sanayotgan gunohlarimiz uchun ham payg’ambarimiz (s.a.v) do’zaxda kim, qanday azob chekishini aytib berganlar. Alloh taolo do’zaxni intiqom maskani qildi” [3., 13.06.2018 30736] – deb aytadilar. Bundan ko’rinadiki, “olov” muhabbat uchun hushyorlik ramzi hisoblanadi. “Muhabbat” insonning jismoniy va ruhiy olamiga ta’sir qilishi, inson do’zaxdan qanchalik qo’rqib gunoh qilishdan o’zini tiysa, oshiq ham muhabbatining zavol bo’lishidan qo’rqishi lozimligi uqtiriladi. Bundan tashqadi muhabbat yo’lining mashaqqati shunchalik qiyinki, uning oldida “do’zax olovi”ning azobi uchquncha bo’lmasligi, bu yo’lda hamma ham bardosh bermasligiga ishora tarzida “olov” leksemasidan foydalanilgan: Ishq yo’lining o’tiga, do’zax o’ti uchquncha yo’q. Muhabbat – sabr-bardosh evaziga qurilishini keyingi maqoldan tushunishimiz mumkin. Unda qancha mashaqqatli bo’lmasin, inson hayotida muhabbat paydo bo’lsa, oshiq o’zini to’xtata olmaydi. Hayoti so’nishini bilsa ham o’zini “muhabbat olovi”ga tashlaydi. Bu yo’ldan uni hech narsa, hech qandan mashaqqat to’xtata olmasligiga ishora qilinadi: Parvonani ishq etmasa mast, Urg’aymu o’zini o’tga payvast.

Olov har qanday po’latni erita olish qudratiga ega. Muhabbat ham kishi sabr-qanoatini, irodasini sinovdan o’tkazishi maqollarda olov timsolida ko’zga tashlanadi. Po’lat olovda toblanib insonga naf keltiradigan buyumga aylangani kabi Oshiq ham “hijron olovi”da toblanib, po’lat kabi mustahkam baxtga erishadi:

Po’lat – olovda, Sevgi hijronda sinalar.

Xulosa qilib aytganda, maqollar xalqimizning urf-odat va an’analarning eng qadimgi na’munalarini o’z bag’rida saqlaydi, ularni avloddan avlodga yetkazish vositasi bo’lishi bilan “madaniyat targ’ibotchi”si vazifasini bajaradi. “Olov” muhabbat haqidagi maqollarning ta’sir kuchini kengaytirish barobarida, muhabbatning muqaddaslik, qadrilik belgilarini ochib beradi, oshiqlardagi qanoat hissini rivojlantiradi shuningdek, olov muhabbatning jo’shqinlik, shiddatkorlik, qaytmaslik belgilarini ifodalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adaboyotlar ro’yxati:

1. Haydarov Z. Nomoddiy madaniy me’ros – Namangan 2014. –194 b.



2. Imom G'azzoliy Qiyomat va oxirat –T.: 2004 – 46 b. Muhammedova S.,
3. Jumanov A. “Islom nuri” dasturining navbatdagi sonida do‘zax va undagi azoblar, do‘zaxga yetaklovchi amallar va unday qanday saqlanish haqida poytaxtning “Islomobod” jome masjidi imom xatibi Abdulhamid Jumanov so‘zlab berdi. Jamiyat 15:49 / 13.06.2018 30736
4. Karimova Feruza // G‘arb olimlarining Avesto va olov kultiga ilmiy munosabatlari // Boshlang‘ich maktabgacha ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish muammolari:innovatsiya va raqamli texnologiyalar va xalqaro tajribalar – Buxoro. 2022. – 46 b.
5. Sapaniyozova M. Matn lingvistikasi. – T.: 2011. –117 b.
6. Yusupova Adiba //“O‘choq”realiya birligi ishtirokidagi barqaror birikmalar persepsiyasi // O‘zbek tili va adabiyotini jahon miqyosida targ‘ib etish: natija va vazifalar mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari –Tashkent – 2021
7. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6568814>

